

3. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.
4. Кобулова Н. Erkin A'zam nasrida xarakter va maishiy hayot tasviri. T.: Общество и инновации, 2021. 2-4/S, 475-480
1. 5.Tosheva Nilufar. Hozirgi o'zbek nasrida folklorga oid vositalarning poetik funksiyasi. –Toshkent: Bookmany print nashriyoti, 2024. 26-38-b.
2. 6.Rasulova, U. (2024). Poetic Research in Modern Story-Writing. *SPAST Reports, 1(1)*.
3. L Raupova, A Botirova, N Musulmanova, H Kadyrova, G Safarova International Journal of Psychosocial Rehabilitation 24 (04)
4. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TALAFFUZ KO'NIKALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH VA Erkinovna// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 2 (16), 1-3
5. ГРАММАТИК ЛУҒАТЛАРИНИНГ ЭЛЕКТРОН ШАКЛИГА СЎЗЛАРНИ ТУРКУМЛАР БЎЙИЧА ТАНЛАБ ОЛИШ ТАМОЙИЛИ: Ботирова Адиба Эркиновна, Навоий давлат педагогика институти доценти
6. АЭ Ботирова Образование и инновационные исследования международный научно-методический
7. THE PRINCIPLE OF SELECTING WORDS BY CATEGORY IN THE ELECTRONIC FORM OF MATHEMATICAL DICTIONARIES A Botirova
8. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 12 (12), 1-11
9. Grammatik o'quv lug'atlari tuzish va ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar A Botirova Til, ta'lim, tarjima 3 (5), 59-66

## NAVOIYNI ANGLASH SAODATI

**Tozagul Dusanova**

**O'zbekiston, Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti v.b., PhD**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridagi nasriy va she'riy matnlarda ilgari surilgan komil inson axloqi, uning tarbiyasiga oid muhim fikrlar haqidagi mulohazalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, “Mahbub ul-qulub”, nasr va nazm, **komil inson**, fasl, bob, tanbeh.

## БЛАЖЕНСТВО ПОНИМАНИЯ НАВОИ

**Аннотация:** В этой статье представлены размышления о нравственности совершенного человека, важные моменты его воспитания,

выдвинутые в прозаических и поэтических текстах в произведении Алишера Навои “Махбуб ул-кулуб”.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, “Махбуб ул-кулуб”, проза и поэзия, гармонично развитая личность, фасл, глава, танбех.

### THE BLISS OF UNDERSTANDING NAVOI

**Abstract:** Abstract: In this article, comments are given about the ideal human morality and important ideas about his upbringing, which are presented in the prose and poetic texts of Alisher Navoi's work “Mahbub ul-qulub”.

**Key words:** Alisher Navoi, “Mahbub ul-qulub”, prose and verse, perfect person, season, chapter, rebuke.

O‘zbek mumtoz adabiyoti bugungi kunda o‘z nazariy va xolisona qarashlariga ega olimlar tadqiqotlari bilan yanada boyib bormoqda. Xususan, navoiyshunoslik, adabiyotshunoslik fanlarining jonkuyarlari sabab sezilarli yutuqlarga erishildi.

“Alisher Navoiy fenomenini anglash ham, boshqalarga buni yetkazish: tushuntirish va izohlash ham yengil yumushlar sirasiga kirmaydi. Buning uchun hamma: tushuntiruvchi ham, tushunishga intiluvchi ham Alisher Navoiyga daxldor bo‘lgan narsalarning juda ko‘pini tasavvur etishi, bilishi, kamida, mutafakkir adibning asarlarini o‘qib chiqishi shart. Tushuntiruvchilar zimmasida esa Amir Alisher Navoiy o‘qigan kitoblarni o‘qib chiqish vazifasi ham jiddiy tarzda ko‘ndalang bo‘lib turibdi”.

Alisher Navoiy asarlari Qur‘on va hadislardan oziqlangan ma‘naviy sarchashmalarimizdir. Navoiy adabiy merosini chin ko‘ngildan o‘qigan, o‘rgangan, satrlari silsilasidagi sirni anglagan odamzod qalbida ruhan tozarishga ehtiyoj sezadi. “Ye.E.Bertelsning: “Navoiyni bilish uchun uning kutubxonasidan to‘la boxabar bo‘lish kerak”, - tarzida aytgan bir yaxshi xulosasi bor. Navoiyni o‘rganishga tutinganimiz zahoti bu ulug‘ shoir tayangan manbalarni kam ko‘rganimiz ayon bo‘laveradi. Bobokalonimiz so‘z san‘ati bobida qaysi daryolardan suv ichgani haqida ozmi-ko‘pmi yozilgan. Ammo nazariy-falsafiy jihatdan, ya‘ni dunyoqarash-u mafkura ma‘nosida Navoiy tayangan manbalarning birinchisi – Qur‘oni karim, ikkinchisi – Hadisi sharif, uchinchisi – shu ikkisidan kelib chiqqan tasavvuf falsafasi[3].

Navoiy “Mahbub ul-qulub” nomli ibratnomasida kelajak avlodning to‘g‘ri yo‘ldan adashmasligi, chin saodatmand shaxs bo‘lib yetishishida lozim bo‘ladigan yaxshi va yomon xislatlar, inson xulqini go‘zal qiladigan fazilatlar haqida fikr yuritib, turli tabaqalarga xos kamchiliklar xususida ma‘lumotlar berish asnosida qalb hayqiriqlarini, yurak tug‘yonlarini she‘riy misralarga tizadi. Jumladan, birinchi qismning o‘n yettinchi fasli “Kotiblar zikrida” bo‘lib mutafakkir ularga ta‘rif bergach, yaxshi va yomon kotiblarga o‘z munosabatini bildiradi, xususan, yomon kotiblar haqida shunday yozadi: “Yamon kotib manzili qalamdonidek choh aro bo‘lsun, qalamidek boshi yaro va yuzi qaro bo‘lsun”.

Fard:

*Qaysi bir kotibki, ul so'zga qalam surgay xilof,  
Ul qaro yuzluk boshi bo'lsun qalam yanglig' shikof [3]*

“Inson axloqini takomillashtirish, uni bilimli, oqil, ma'naviy yetuk qiyofada ko'rish insonparvar adiblarimizning azaliy orzusi bo'lib kelgan. Biroq bu masala hech bir adibda Alisher Navoiyda bo'lganiday yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Ulug' o'zbek shoirining qaysi bir asarini olib qaramaylik, unda inson xislatlari, ziynati va tabiati, a'mol va niyatlari haqida teran fikrlar yuritilganligining shohidi bo'lamiz” [4].

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”ida pand-nasihati, nafs tarbiyasi, axloqiy qarashlar bosh mavzuga aylanib, har bir fasl, bob hamda tanbehlarda nasr va nazm orqali to'g'ridan to'g'ri ifoda etiladi, turli xil toifa kishilari va ularning xislatlariga har tomonlama ta'rif va tavsif berilib, falsafiy-axloqiy xulosalar chiqariladi. Mana shu mulohazalardan kelib chiqib, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarni axloqiy-falsafiy yo'sindagi ibratnoma deb atash mumkin.

Abdurahmon Jomiy Navoiyning ham ustoz, ham maslakdosh do'sti edi, shuning uchun bu muhtaram siymo Navoiyning deyarli barcha asarlarida hurmat bilan tilga olingan. “Mahbub ul-qulub” asarining birinchi qism 16-fasli “Nazm gulistonining xushnag'ma qushlari zikrida” deb nomlanadi va Navoiy o'zigacha o'tgan, o'z zamonida yashagan yirik shoirlarni asosan g'oyaviy yo'nalishlariga qarab, beshta guruh – “jamoat”ga bo'ladi, to'rtinchi guruhga faqat Abdurahmon Jomiy kiritadi. Navoiy Mavlono Jomiy: “Birinchi guruh ravishida so'zi sharafliligi va so'nggi guruhning ham uslubi go'zalliklarida kamol egasidirki, dunyodagi ilohiy haqiqat shaydolari ham, pok insoniy muhabbat ahllari ham bularning latif va ma'nodor so'zlari bilan xushnuddirlar va tarqatgan ma'rifatlari bilan huzur qiladilar”, - deya ta'riflaydi.

Asarning birinchi qismida o'z zamonasidagi 40 dan ortiq toifa vakillarining jamiyatdagi vazifasi, fe'l-atvori, ahvoli haqida fikr yuritib, ularning fazilatlarini va kamchiliklarini goh tanqidiy, goh ijobiy, goh nafrat bilan tasvirlaydi hamda fikrlarini dalillash maqsadida har bir toifaga berilgan tavsifdan so'ng she'riy matn keltiradi. Bu qismda bayon etilgan mulohazalar Alisher Navoiy hayotiy tajribalarining umumlashmasi bo'lib, ularda odamlarning ogohlik va sabr bilan saboq olishi, Vatan, xalq, insoniyat uchun xizmat qilish uchun komillikka erishishi, komil inson bo'lishi lozimligi uqtiriladi.

Jumladan, 90-tanbehda ta'zim va adab haqida shunday yozadi:

*Iymong'a erur nishon hayo birla adab,*

*Hurmat bila ta'zim saodatqa sabab.*

*Hayyivu muaddab angakim, bo'lsa laqab,*

*Maqsudig'a kech yetsa ajab, angla ajab. [A.N. 9-Jild. 2011:531]*

“Ulug' Alisher Navoiy shaxsida ravshan ko'zga tashlanadigan yana bir jihat shundaki, u o'z vujudida harakatda bo'lgan ilohiy mo'jizani hamisha his etib, uning manbasi – Allohga shukrona aytish, unga sig'inishdan tilini kanda qilgan emas...“Devon”laridan joy olgan turkum she'rlar, “Xamsa” dostonlari ibtidosida kelgan hamd, na't, sano, me'roj, munojot talqiniga atalgan maxsus boblar, nasriy asarlari, “Mahbub ul-qulub”dagi o'sha mavzuga bag'ishlangan fasllar

aytganlarimizga shohiddir. Ayni parchalar bag‘oyat muhim va ular jiddiy tahlilga sazovordir”.

“Mahbub ul-qulub” asari komil inson axloqi, uning tarbiyasiga oid muhim manba hisoblanadi va insoniyatga kamolot yo‘lini ko‘rsatib turadi. Asarning ikkinchi qismida bashariyat, jamiyat kamoloti uchun inson qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerakligi va insonni ma‘naviy barkamol etadigan yaxshi fe‘llar hamda uni tuban qiladigan yomon fe‘llar kasofati haqida ma‘lumotlar berilgan. Komillikka erishish masalalari tasavvufiy qarashlar tamoyilida ko‘zdan kechiriladi va bu birinchi va ikkinchi bo‘limlarning ma‘naviy jihatdan bir-biri bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Sharqning boshqa mutafakkirlari singari Navoiy ham tasavvufdan oziqlangan, uning irfoniy g‘oyalaridan ruhlangan. “Tasavvuf adabiyotini o‘rganmasdan turib, o‘rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin emas. Bu adabiyotdan xabardor bo‘lmasdan Sharqning o‘zini anglash qiyin”.

O‘zbek adabiyotining ming yillik tarixini tasavvuf ta‘siridan ayri holda tasavvur qilishning imkoni yo‘q, chunki tasavvuf milliy-ma‘naviy hayot uchun asosiy e‘tiqod falsafasi, o‘ziga xos mafkura edi. Tasavvufning asl maqsadi axloqqa yo‘naltirilgan. Komil inson g‘oyasi bu ta‘limotning bosh g‘oyasi hisoblanadi. Hayotning o‘zida shunday g‘oya va unga intilishning tayyor nazariyasi va kuchli amaliyoti bo‘la turib, adabiyotning bu ta‘limotga befarq bo‘lishining ham iloji yo‘q edi, negaki, inson va uning kamolotga erishishi so‘z san‘atida ham asl maqsad kabi targ‘ib etib kelingan.

“Mahbub ul-qulub” asarida Alisher Navoiyning dinga, tasavvufga munosabati va komil inson axloqi qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi qarashlari o‘zining badiiy ifodasini topgan. Darvoqe, “Mahbub ul-qulub”ning ikkinchi qismi “Hamida af‘ol va zamima xisol zikrida” deb nomlanib, o‘n bobda Navoiy ijodining o‘zak masalalaridan hisoblanmish tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavoze va odob, zikr, tavajjuh, rizo, ishq kabi tushunchalarning irfoniy-axloqiy talqini keltirilgan. Har bir bobda ruhiy tarbiyaning muhim bosqichlari hisoblanmish ushbu o‘nta insoniy fazilatning asl mohiyati shayxlar va tarixiy shaxslar haqidagi ibratli hikoyat va rivoyatlar bilan dalillanadi.

Islom tasavvufining manbalari nur-u ziyosidan jilvalangan shoir asarlarining har bir misrasi haqiqat manzaralarining ifodasi nuqtayi nazaridan o‘rganilishi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. ж-9: Махбуб ул-қулуб. – Т.: Фафур Гулом номидаги НМИУ, 2011;
2. Бертельс Е.Э. Сўфизм ва тасаввуф адабиёти. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.
3. Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. Бухоро. 1994;
4. Муҳиддинов М. Адабий анъана ва ижодий ўзига хослик. Т.:1990;
5. Султонмурод Олим. Нақшбанд ва Навоий. Т.: 1996;

6. To‘xliyev B. Adolat tasviri va Alisher Navoiy dahosini anglash muammolari. [www.tai.uz](http://www.tai.uz).

## **NUROTALIK YOZUVCHI RAHIM QODIR IJODIGA CHIZGILAR**

**Rajabov Faxriddin Toshpo‘lotovich**  
**O‘zbekiston, Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi,**  
**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nurotalik yozuvchi Rahim Qodirning hayoti va ijodi shuningdek, adabiy merosining mavzu ko‘lami, Nurota folklorshunosligining manbalari va unga bog‘liq materiallarni to‘planishi xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Nurota, folklor, jirav, jadir, Sovuqbuloq, Zulqarnayn.

### **ЧЕРТЕЖИ ПО ТВОРЕНИЯМ ПИСАТЕЛЯ РАХИМА КАДИРА**

**Аннотация:** В данной статье рассматривается жизнь и творчество нуратинского писателя Рахима Кадира, а также объем его литературного наследия, источники нуратинского фольклора и сборник сопутствующих материалов.

**Ключевые слова:** Нурота, фольклор, Жирав, Джадир, Сольдбулок, Зулькарнайн.

### **DRAWINGS ON THE CREATION OF THE WRITER RAHIM QADIR**

**Abstract:** This article discusses the life and work of Nurota writer Rahim Qadir, as well as the scope of his literary heritage, the sources of Nurota folklore and the collection of related materials.

**Key words:** Nurota, folklore, Jirav, Jadir, Soldbuloq, Zulqarnayn

“Haqiqiy adabiyot ruhiyat alifbosidan dars beradi; aql va tuyg‘ular o‘yinidan yaraladi. Har qanday ijodda chin yurakdan yozish, o‘ylab va o‘ynab yozish, so‘ylanib yozish, o‘chirib yozish, yozib o‘chirish, eng muhimi, imon va vijdon bilan haqiqatni xolis yozish lozim. Ko‘rganlaridan ko‘chirib, birovlarining insholarini stilistik tarafdin o‘zlashtirib kitob yasash bilan iztirobli ijod, ijod zavqi o‘rtasida farq bor”[1, 4 bet].

Nurotalik ijodkor Rahim Qodir aynan shu sifatlarni o‘zida mujassamlashtirgan holda badiiy va ilmiy ijod bilan shug‘illandi. Rahim Qodir 1950 yil 14 martda Navoiy viloyati Nurota tumanida tug‘ilgan. 1957-1959 yillar tumandagi 2-maktabda, 1959-1965 yillar 7-son maktab- internatda, 1965-67 yillar A.S. Pushkin nomli maktabda o‘qigan. Maktabni tugatib, tuman pochta bo‘limida xizmat qilgan. Aynan shu davrda muallifning so‘zga bo‘lgan munosabati va Nurotaning qadimiy boy madaniy merosiga bo‘lgan qiziqishni pochta bo‘limiga kelgan gazeta va jurnallarni sinchiklab o‘rganish shakllantirdi. 1968 yil ToshDUning Jurnalistika fakulteti talabasi bo‘lgan. Bo‘lajak olimning talabalik davri Toshkent muhitida yashash uchun qo‘shimcha ishlashni talab etdi. Avval